



O'SMIR O'QUVCHILARDA KIBERXUJUMLARNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Husanov Abbos Mahmudovich

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-02>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2023

Accepted: 01st February 2023

Online: 03rd February 2023

KEY WORDS

Virtual olam, kiberxujum, xavfsizlik muammosi, virtual psixologiya, kiberxujumda yolg'on axborot, ta'sir etish, shaxs, psixologik xususiyat, psixologik omil, individuallik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'smir o'quvchilarda kiberxujumlarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar yoritib berilgan. Shuningdek, kiberxujumlarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarning tadqiqot predmeti sifatida ishlatilishi va psixologik tadqiqotlarda asosiy mohiyatni belgilab beruvchi mezon sifatida ishlatilishi tahlil qilib berilgan.

XXI asr haqli ravishda "Axborot davri" nomini oldi. Zamonaviy jamiyat sharoitida axborot deyarli bir zumda vaqt va makonda tarqaladigan eng qimmatli resurslardan biriga aylandi. Kun sayin filtrlash, ya'ni "spam" (inglizcha spam – deyarli foydasiz ma'lumot) deb ataladigan muammoning dolzarbligi o'sib bormoqda. Unga yaqin kelajakda zamonaviy odam – Homo Sapiens "g'arq" bo'lishi, XX-XXI asrlar oxiriga kelib "Homo Cyberus"ga aylanishi ham mumkin.¹

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o'zi, ko'pincha, sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko'ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Chunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lgan shakliga o'tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Kibertahdidlar, shuningdek, axborot texnologiyalari obyekti, kompyuterlar tarmog'i, intellektual mulk yoki boshqa har qanday maxfiy ma'lumotlarga ruxsatiz kirish, ularga zarar yetkazish, buzish yoki o'g'irlashga qaratilgan muvaffaqiyatli kiberhujum ehtimolini ham nazarda tutadi. Kibertahdidlar kompaniya yoki tashkilot ichidan, ishonchli foydalanuvchilardan yoki noma'lum shaxslar tomonidan uzoq joylardan kelib chiqishi mumkin.

¹ Плешаков В. А. Киберсоциализация человека: от Homo Sapiens'а до «Homo Cyberus'а» // Вопросы воспитания. М., 2010. № 1 (2). С. 92–97.



Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reyting ABI Research va XEI ning qo'shma loyihasi bo'lib, indeks davlatlarning kiberxavfsizlik sohasidagi ishtiroki darajasini baholash imkonini beradi. Bunda majburiyatlar darajasi besh sohada baholanadi: huquqiy choralar, texnik choralar, tashkiliy choralar, salohiyatning rivoji va xalqaro hamkorlik. Kiberxavfsizlik bo'yicha global reytinglarda 2020 yil sarhisobiga ko'ra O'zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksi (National Cyber Security Index) da 90 o'rinda, Global kiberxavfsizlik indeksi (Global Cybersecurity Index) da 52 o'rinda, AKT rivojlanganlik indeksi (ICT Development Index) da 95 o'rinda. Bu tahlillar kiberxavfsizlik masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi, boisi dasturiy zaifliklar buzg'unchiga axborot tizimi yoki veb-sayt, shuningdek, fayl va ma'lumotlarga masofadan kirish, fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan o'smirlarda kiberxavfsizlik choralari bu kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi².

Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, bu rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiyotiga ko'maklashish, umuminsoniy demokratik tamoyillarni qaror toptirish niqobi ostida fuqarolar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni turli yo'llar bilan o'z maqsadlari sari bo'ysundirish orqali amalga oshirilmoqda. Afsuski, bu jarayonda kiberhujumlarni uyushtirish, bu yo'lda internet global tarmog'ining mislsiz imkoniyatlaridan «samarali» foydalanishga urinishlar tobora avj olmoqda³.

Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq. Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa, o'z navbatida, borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan mutanosib bo'lishi darkor. Shuning uchun, birinchi navbatda, axborot olayotgan kishi uni mutlaqlashtirmasdan, o'z shuuri darajasida tahlil qilib, so'ng qabul qilishi lozim.

Zamonaviy jamiyatning farqli belgilaridan biri – bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tevarak atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga doimiy moslashtirib borish hisoblanadi. Sivilizatsiyaning rivojlanishida uning asl mohiyatini oldin qanday bo'lganligi bilan taqqoslaymiz. Uning o'ziga xoslik belgilari uzluksizlik, shiddatlilik, global xarakterlilikdir. Axborotlashtirish asrida axborot xurujining avj olishi, ayniqsa, yoshlarda axborot olish madaniyati, o'qish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi⁴.

«Kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi» tushunchasini birinchi marta P.Zurkovskiy XX asrning 70-yillarida ish va kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda axborot resurslaridan to'g'ri foydalana olgan insonga nisbatan ishlatgan. « Kiberxujumlardan saqlanish resurslarini o'z hayot faoliyatida to'g'ri tatbiq qila olgan odamlarni axboriy-savodxon deb atash mumkin» deydi. Keyingi o'n yilliklar davomida kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi AQShning kundalik hayotida, maktabda, ish joylarida eng faol tushunchaga aylandi. Ushbu tushuncha evolyutsiyasiga rasmiy asos AQSH Prezidenti ma'muriyatining kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi to'g'risidagi hisoboti bo'ldi. Unga ko'ra «axboriy-savodxon inson deb axborotga talabni his qilgan, axborotni qidirish, baholash

² Кузнецова, О. В., Скрыльникова, Н. И. (2017). Компаративный анализ направлений исследований в области киберпсихологии в России и за рубежом. Современная зарубежная психология, 6(4), С. 66–76.

³ Рубцова, О. В. (2019). Цифровые технологии как новое средство опосредования (Часть первая). Культурно-историческая психология, 15(3), С. 117–124.

⁴ Connolly, I., Palmer, M., Barton, H., Kirwan, G. (Eds.) (2016). An Introduction to Cyberpsychology. Routledge, 2016. P. 136-144.



va to'g'ri qo'llay olishni bilgan shaxsni atash mumkin. Hozirgi kunda optimal qaror qila oladigan va demokratik jamiyatda to'liq qatnasha oladigan har qanday zamonaviy shaxs axboriy-savodxon inson bo'lishi kerak» deyilgan⁵.

Kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi bo'yicha xorij mamlakatlariga nazar solinsa, AQSH kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga 1989 yildan buyon jiddiy etibor qaratib kelinadi. Bu yo'lda AQSH prezidenti huzurida maxsus ishchi guruh tuzilgan bo'lib, « Kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi» atamasi aynan mana shu ishchi guruh faoliyati natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, guruh kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi bo'yicha milliy forumning yaratilishiga sabab bo'lib, u o'z ichiga yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan.

Oxirgi bir necha yillar mobaynida umumiy kiberxujumlardan saqlanish savodxonligini rivojlantirish lozimligi jamiyatimizda yoshlar bilan ishlashning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelmoqda. Fikr yuritish va axborotni baholash yangi mazmundagi axborot savodxonligining markazidan o'rin olgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida qabul qilingan «XXI asr talabasi uchun standartlar» deb nomlangan yo'riqnomada esa, o'quvchilar malaka, manba va bilim olish vositalarini quyidagi maqsadlarga yo'naltirishi lozimligi belgilgan. Bular: ma'lumot izlash, tanqidiy o'ylash, bilim olish, xulosalar yasash, tegishli ma'lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo'naltirish, yangi bilimlarni yaratish, bilim almashish va shaxsiy kamolot hamda estetik jihatdan o'sishga intilishdir. Mazkur standartlar o'rta ta'lim sohasidagi axborot savodxonligi masalalariga bag'ishlangan bahs-munozalarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan⁶.

Mazkur standartlar kiberxujumlardan saqlanish savodxonligiga ega bo'lgan insonni quyidagicha ta'riflaydi⁷:

- kerak bo'lgan axborot ko'lamini belgilay oladigan;
- axborot va uning manbalarini tanqidiy baholay oladigan va saralangan axborotni o'z bilim bazasi bilan uyg'unlashtira oladigan;
- axborotdan foydalanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy masalalarni tushunadigan, shuningdek axborotdan qonuniy tarzda hamda axloq meyorlari doirasida foydalana biladigan;
- mahsulot va jarayonga baho bera oladigan kishidir.

Shunday qilib, «kiberxujumlardan saqlanish savodxonligi» atamasi ishlatilganda ko'plab amerikalik tadqiqotchilar har qanday ziyoli kishi axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun faqat bir yoki bir necha ko'nikmalar emas, balki katta bilimlar kombinatsiyasi va mukammal qobiliyatlarga ega bo'lishni nazarda tutishadi.

Y.G.Noskovning so'ziga ko'ra, axborotlar orqali inson ongini zabt etish o'z-o'zidan ularni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayirish ham sanaladi⁸. Bundan kelib chiqib shuni aytish

⁵ Norman, K. L. (2017). *Cyberpsychology: An Introduction to Human-Computer Interaction*. UK: Cambridge University Press. P. 68-75.

⁶ Suler, J. (2016). *Psychology of the Digital Age: Humans Become Electric*. Cambridge University Press. Whitty, M. T., Young, G. (Eds) (2016). *Cyberpsychology: The Study of Individuals, Society and Digital Technologies*. BPS Blackwell. P. 37-49.

⁷ Солдатова, Г. У., Рассказова, Е. И., Нестик, Т. А. (2017). *Цифровое поколение России: компетентность и безопасность*. М.: Смысл. С.70



mumkinki, axborot-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi⁹.

Ilmiy asosga ko'ra, kiberxujumlardan saqlanish masalasi addiktologiya fanining yetakchi olimlari sanalgan A.V.Borsov, T.V.Klimenko hamda A.Y.Yegorovlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan¹⁰. Mualliflar asosan, muammoning tibbiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratib, soha mutaxassislarining hamkorlikdagi amalga oshiradigan psixoprofilaktik chora-tadbirlari masalalariga ko'proq e'tibor qaratishgan.

K.S.Yangning ta'kidicha, kiberxujumlardan saqlanishni belgilovchi to'rt muhim sifat mavjud¹¹:

- elektron pochta tekshirishga bo'lgan muntazam istak;
- internet aloqani doimiy ravishda kutish;
- shaxsning internet tarmog'ida ko'p vaqtini sarflashi to'g'risida boshqalarning shikoyati;
- biror kishining internet uchun juda ko'p pul sarflayotgani to'g'risidagi shikoyati va hokazo.

S.P.Korolenko boshqa olimlardan farqli o'laroq, kiberxujumlardan saqlanish fenomenini quyidagicha ta'riflaydilar: "tarmoq olamiga tobelik bu, ijtimoiy muhitni tark etish yoki rayel hayotga nisbatan namoyon bo'ladigan tajovuzkor xulq-atvor shakli bo'lib, u kiberpsixologiya ma'lumotlari bilan to'ldirilishi lozim. Muallifning inson va tarmoq o'rtasida o'ziga xos aloqa shakli mavjud bo'lib, ushbu aloqa shakllari inson ongining bosh g'oyasiga aylanib qolmasligi kerak.

D.G.Ribaltovich hamda V.V.Zaytsevlarning xulosalariga ko'ra, kiberxujumlardan saqlanish fenomenining kattalarda uchraydigan quyidagi turlari ajratiladi: turli noodatiy o'yinlariga tobelik, ko'p pul sarflashga tobelik, jinsiy yaqinlikka tobelik, qimor o'yinlariga tobelik, kliptomaniyaga tobelik (o'g'irlikka moyillik), trikotillomaniya mazmunidagi tobelik (organizmning biror sohasiga shikast yetkazishga qaratilgan patologik moyillik), piromaniyaga bo'lgan tobelik (o't qo'yishdan o'zini to'xtata olmaslik) va hokazo. Tadqiqotchilar ushbu mulohazalarida shaxsning normal hayot tarzidagi tobelik holati va patologik xarakterdagi tobelik xususiyatlari o'rtasidagi o'ziga xosliklarni tushuntirishga harakat qilganlar.

1-jadval

Kiberhujumlardan saqlanish va shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholashni o'rganish so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti mezonini bo'yicha)

⁹Носков Ю.Г. Опасность и безопасность с позиции деятельностного подхода// Информационный сборник «Безопасность». 1998. - №1-2. – С.45.

⁹ Куликова, С. В., Шеяфетдинова, Н. А., Маклаков, В. В., Креопалов, В. В., Нарциссова, С. Ю. (2018). Взаимодействие в киберпространстве: принципы и формы: Учебное пособие. Москва: Академия МНЭПУ. С.58

¹⁰Руководство по аддиктологии: учебник /А.В Борцов, А.Ю. Егоров, Т.В Клименко [и др.] / под ред. проф. В. Д. Менделевича. - СПб.: Речь, 2007. – С.123.

¹¹Yang K.S. Internet addiction: The emergence of new clinical disorder. // Cyber psychology & Behavior 1998 vol. 1 - p.237-42.



Shkalalar	Kiberhujumlarga umumiy qaramlik	Virtual olamga qaramlikga moyillik	Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	Televizorga qaramlik	Kompyuter o'yinlariga qaramlik	Internetga qaramlik
O'z-o'zini ayblash	0,446*	0,689**	0,549**	0,637**	0,329	0,479*
O'z-o'zini idora qilish	0,478*	0,295	0,472*	0,563**	0,317	0,462
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	0,480*	0,547**	0,473*	0,459*	0,579**	0,521**
O'z-o'zini qadrlash	0,463*	0,569**	0,591**	0,220	0,438*	0,562*
O'z-o'zini qabul qilish	0,280	0,545**	0,240	0,539**	0,463*	0,541**
Ichki ziddiyat	0,468*	0,482*	0,549**	0,309	0,658**	0,421*
O'z-o'ziga ishonch	0,531*	0,684**	0,260	0,431*	0,539**	0,329

Izoh: * – $r \leq 0,05$; ** – $r \leq 0,01$; *** – $r \leq 0,001$.

O'smir o'quvchilarda kiberhujumlardan saqlanishning psixologik determinantlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'z-o'ziga munosabatini baholash va kiberxavfsizlikdan himoyalaniшни aniqlashga qaratilgan so'rovnoma shkalalari ya'ni o'zini o'zi ayblash shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini idora qilish shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'ziga munosabatning aks etishi shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini qadrlash shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini qabul qilish shkalasi virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, ichki ziddiyat shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'ziga ishonch shkalasi virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik shkalalari bilan musbat darajada korrelyatsiyalarni hosil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarni tergov qilish va ularni aniqlash, bartaraf yetish hamda oldini olish bo'yicha zarur qarorlar qabul qilish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok yetish, kiberterrorizm, kiberekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, davlat organlari manfaatlariga hamda kiberxavfsizligiga tahdid soluvchi kiberhatarlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish kiberjinoyatlarning sodir yetilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf yetish kabi muhim vazifalarni bajarishlari lozim.



References:

1. Плешаков В. А. Киберсоциализация человека: от Homo Sapiens'a до «Homo Cyberus'a» // Вопросы воспитания. М., 2010. № 1 (2). С. 92–97.
2. Кузнецова, О. В., Скрыльникова, Н. И. (2017). Компаративный анализ направлений исследований в области киберпсихологии в России и за рубежом. Современная зарубежная психология, 6(4), С. 66–76.
3. Рубцова, О. В. (2019). Цифровые технологии как новое средство опосредования (Часть первая). Культурно-историческая психология, 15(3), С. 117–124.
4. Connolly, I., Palmer, M., Barton, H., Kirwan, G. (Eds.) (2016). An Introduction to Cyberpsychology. Routledge, 2016. P. 136-144.
5. Norman, K. L. (2017). Cyberpsychology: An Introduction to Human-Computer Interaction. UK: Cambridge University Press. P. 68-75.
6. Suler, J. (2016). Psychology of the Digital Age: Humans Become Electric. Cambridge University Press. Whitty, M. T., Young, G. (Eds) (2016). Cyberpsychology: The Study of Individuals, Society and Digital Technologies. BPS Blackwell. P. 37-49.
7. Солдатова, Г. У., Рассказова, Е. И., Нестик, Т. А. (2017). Цифровое поколение России: компетентность и безопасность. М.: Смысл. С.70
8. Носков Ю.Г. Опасность и безопасность с позиции деятельностного подхода// Информационный сборник «Безопасность». 1998. - №1-2. – С.45.
9. Куликова, С. В., Шеяфетдинова, Н. А., Маклаков, В. В., Креопалов, В. В., Нарциссова, С. Ю. (2018). Взаимодействие в киберпространстве: принципы и формы: Учебное пособие. Москва: Академия МНЭПУ. С.58
10. Руководство по аддиктологии: учебник /А.В Борцов, А.Ю. Егоров, Т.В Клименко [и др.] / под ред. проф. В. Д. Менделевича. - СПб.: Речь, 2007. – С.123.
11. Yang K.S. Internet addiction: The emergence of new clinical disorder. // Cyber psychology & Behavior 1998 vol. 1 - p.237-42.